

FRANSUZ MAQOLLARIDA "MAMOT" KONSEPTINING MAKROKONSEPTLARI TAHLILI

Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti professori

Mamadaliyeva Shaxzoda

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

mamadaliyevashahzoda77@gmail.com Tel: +998946630409

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19910807>

Annotatsiya: Ushbu maqolda fransuz tilidagi o'limga oid paremiologik birliklarning kognitiv-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda fransuz maqollaridagi "mamot" (o'lim) konsepti makrokonseptlar tizimi asosida o'rganiladi. Muqarrarlik, hayot va o'lim ziddligi, qo'rquv va psixologiya, jasorat va erkinlik, sabab va oqibat, axloq va hayot sifati, donolik va falsafa, vaqt va qarish, xotira va meros, tinchlik va yakun, biologik yakun, o'tish, yo'qotish va hissiyot, sharaf va qadriyat, tenglik va adolat kabi o'n besh makrokonsept aniqlangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, fransuz paremiologiyasida o'lim nafaqat biologik hodisa, balki falsafiy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy kategoriya sifatida idrok etiladi.

Kalit so'zlar: paremiologiya, kognitiv semantika, makrokonsept, mikrokonsept, mamot konsepti, fransuz maqollari, lingvomadaniy tahlil, metafora, kognitiv model.

Аннотация: В данной статье рассматриваются когнитивно-семантические особенности паремнологических единиц французского языка, относящихся к теме смерти. Концепт "мамот" (смерть) исследуется на основе системы макроконцептов. Выделены пятнадцать макроконцептов: неизбежность, оппозиция жизни и смерти, страх и психология, мужество и свобода, причина и следствие, нравственность и качество жизни, мудрость и философия, время и старение, память и наследие, покой и завершение, биологическое завершение, переход, утрата и чувства, честь и ценность, равенство и справедливость. Делается вывод, что во французской паремнологии смерть воспринимается не просто как биологическое явление, но и как философская, нравственная, социальная и культурная категория.

Ключевые слова: паремнология, когнитивная семантика, макроконцепт, микроконцепт, концепт смерти, французские пословицы, лингвокультурный анализ, метафора, когнитивная модель.

Abstract: This article examines the cognitive-semantic characteristics of French paremiological units related to the concept of death. The concept of "mort" (death) in French proverbs is analysed through a system of macro-concepts. Fifteen macro-concepts are identified: inevitability, the life-death opposition, fear and psychology, courage and freedom, cause and effect, morality and quality of life, wisdom and philosophy, time and ageing, memory and legacy, peace and closure, biological finality, transition, loss and emotion, honour and value, and equality and justice. The study concludes that in French paremiology, death is perceived not merely as a biological event but as a philosophical, moral, social, and cultural category.

Keywords: paremiology, cognitive semantics, macro-concept, micro-concept, concept of death, French proverbs, linguo-cultural analysis, metaphor, cognitive model.

Fransuz tilidagi o'lim haqidagi maqollar umumiy tarzda uch yirik makrokonseptga birlashadi: 1) **mamot** — muqarrarlik, tenglik; 2) **falsafa va axloq** — donolik, iroda, qadriyat; 3) **jarayon va o'tish** — xotira, meros, safar. Ularning tarkibida muqarrarlik, qo'rquv, jasorat, xotira, tenglik, tinchlik, donolik kabi mikrosemantik maydonlar ajraladi.

Muqarrarlik (L'inévitabilité) makrokonsepti o'limning universal qonuniyatini ifodalab, ajal, taqdir va universallik mikrokonseptlarini qamraydi. *La mort est inévitable. Tôt ou tard, il faut mourir. La mort n'épargne personne.* "La mort est..." va "Il faut mourir" grammatik modellari o'limni hamma uchun teng qonun sifatida ko'rsatadi. Fransuz mentalitetida o'limga nisbatan stoikona munosabat ushbu maqollarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Hayot va o'lim zidligi makrokonsepti yashash sifatini miqdordan ustun qo'yadi. *Bien vivre vaut mieux que bien mourir. Mourir n'est rien, c'est vivre qui est difficile.* "Mieux vaut + mourir + que + vivre" tuzilmasi orqali fransuz donoligi hayotning qadriyat sifatida anglash uchun o'lim tushunchasidan tutqich sifatida foydalanadi. **Qo'rquv va psixologiya** makrokonseptida esa: *"Qui craint de mourir ne vit pas"* — o'limdan qo'rqishning o'zini halokatga olib kelishi paradoksini ifodalaydi. Fransuz mentalitetida o'limdan ortiqcha qo'rqish zaiflik, undan qo'rqmaslik esa donlik alomati sanaladi.

Jasorat va erkinlik makrokonsepti fransuz inqilob davri ruhini aks ettiradi: *Il vaut mieux mourir debout que vivre à genoux. Mieux vaut mourir libre que vivre esclave.* "Mieux vaut mourir + Adj + que + vivre + Adj" tuzilmasi o'limni erkinlik va sha'n-sharaf bilan bog'laydi. Kognitiv jihatdan o'lim bu yerda "ozodlikka yo'l" metaforasi orqali idrok etiladi. **Sabab va oqibat** makrokonseptida: *On meurt comme on a vécu. Qui vit par l'épée mourra par l'épée.* "Hayot — ekin, o'lim — hosil" metaforasiga asoslangan bu maqollar fransuz didaktik tafakkurining axloqiy sabab-oqibat g'oyasini ifodalaydi.

Axloq va hayot sifati makrokonseptida *"Bien vivre vaut mieux que bien mourir. Mal vivre fait mal mourir"* konstruksiyalari orqali halol va yaxshi yashash yaxshi o'limni kafolatlashi ko'rsatiladi. **Donolik va falsafa** makrokonseptida: *Il faut apprendre à mourir pour apprendre à vivre.* Montaigne va La Rochefoucauld ta'sirida shakllangan bu maqollar o'limni donlik maktabiga aylantiradi. **Vaqt va qarish** makrokonseptida: *Vieillir, c'est mourir un peu* — yosh ulgayishi o'limga yaqinlashish sifatida kognitiv jihatdan idrok etiladi.

Xotira va meros makrokonseptida "Celui qui + o'lim fe'li + laisse derrière lui + ob'ekt" tuzilmasi o'limni davomiylikning boshlanishi sifatida ko'rsatadi: *Celui qui quitte ce monde laisse derrière lui ses œuvres.* "O'lim — xotira orqali abadiy hayot" metaforasi bu yerda markaziy o'rinni egallaydi. **Tinchlik va yakun** makrokonseptida: *Il a rendu l'âme en paix. Fermer les yeux, c'est donner la place au repos éternel.* "O'lim — uyqu" va "o'lim — tinchlik" metaforalari orqali o'lim dahshat sifatida emas, hayotdan orom topish sifatida talqin qilinadi.

O'tish makrokonseptida o'lim yo'qolish emas, boshqa olamga safar sifatida poetik ma'no kasb etadi: *Quitter ce monde est le dernier voyage de l'âme. Rejoindre les ancêtres, c'est revenir à la source.* Antik mifologiya va xristian tasavvurlarining uyg'unligidan shakllangan bu maqollar fransuz madaniyatidagi o'limning eng chiroyli poetik tasvirini beradi. **Tenglik va adolat** makrokonseptida esa: *La mort est le grand égalisateur. À la mort, tous les hommes sont égaux.* O'lim boy va kambag'alni, ulug' va kichikni teng qilib ko'rsatuvchi yakuniy adolat sifatida idrok etiladi.

Fransuz tilidagi o'limga oid paremiologik birliklarning kognitiv-semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, "mamot" konsepti o'zaro bog'liq o'n besh makrokonsept tizimida ifodalanadi. Ularning eng umumlashgan ko'rinishi sifatida uch yirik konseptual maydon ajralib chiqadi: "mamot — muqarrarlik va tenglik", "falsafa va axloq" hamda "jarayon va o'tish". Takrorlanuvchi grammatik modellar — *"La mort est..."*, *"Il faut mourir..."*, *"Mieux vaut mourir... que vivre..."*, *"On meurt comme on a vécu"* — orqali o'limning universal qonuniyatlari ifodalanadi. Kognitiv jihatdan o'lim quyidagi metaforalar orqali idrok etiladi: o'lim — muqarrar qonun; o'lim — hayot natijasi; o'lim — tanlov va qadriyat; o'lim — o'tish va safar; o'lim — tinchlik va orom; o'lim — xotira orqali davomiylik. Fransuz paremiologiyasida o'lim nafaqat biologik hodisa, balki falsafiy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Bu esa paremiologik birliklarning lingvomadaniy va kognitiv tadqiqotlar uchun muhim manba ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. — Москва: Наука, 1988. — 236 с.
2. Сувонова Н.Н. Некоторые проблемы перевода узбекских пословиц на французский язык // Ученый XXI века. — 2016. — № 2-5 (15). — С. 46–48.
3. Suvonova N.N. Frazologiyada ro'zg'or buyumlari leksemasining ayrim referensiallik xususiyatlariga doir // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. — 2023. — Т. 1. — № 4. — С. 35.
4. Сувонова Н., Алиева Г. Ўзбек халқ мақолларини француз тилига таржима қилишнинг миллий хусусиятлари // Foreign Languages in Uzbekistan. — 2020. — № 3(32). — С. 192–205.
5. Сувонова Н.Н., Долиева Л.Б. Французча ономотопик феъллар иштирокидаги ибораларда инсон руҳияти тасвири // Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2020. — № 2(31). — Б. 65–79.